



**MILLIY GVARDIYA JAMOAT TARTIBINI SAQLASH BO‘LINMALARI  
TOMONIDAN SAVDO MAJMUALARI HAMDA BOZORLARDA  
JAMOAT TARTIBINI SAQLASHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

---

ОСОБЕННОСТИ ПОДДЕРЖАНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА В  
ТОРГОВЫХ КОМПЛЕКСАХ И НА РЫНКАХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЯМИ  
ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ

---

SPECIFIC FEATURES OF MAINTAINING PUBLIC ORDER IN SHOPPING  
MALLS AND MARKETS BY THE NATIONAL GUARD'S PUBLIC  
ORDER UNITS

*Fayzullayev Javohir Narzullo o‘g‘li*

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti*

*Magistratura tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlashga jalb etilgan shaxsiy tarkibning xizmat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari hamda xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha bir qancha masalalar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Milliy gvardiya, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash, inson manfaati, tizimli taxlil, saf bo‘linmalari.

**Аннотация:** В данной статье анализируются особенности служебной деятельности личного состава Национальной гвардии, задействованной в обеспечении общественного порядка, а также ряд вопросов, связанных с дальнейшим совершенствованием служебной деятельности.

**Ключевые слова:** Национальная гвардия, общественная безопасность, поддержание общественного порядка, человеческие интересы, системный анализ, воинские части.

**Abstract:** This article analyzes the specific features of the service activities of the National Guard personnel involved in maintaining public order, as well as a number of issues for further improving service activities.

**Keywords:** National Guard, public safety, maintaining public order, human interest, systematic analysis, rank-and-file units.

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida keng ko‘lamli ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi, bunda asosiy e‘tibor fuqarolarning



huquqlarini himoya qilish va aholi manfaatlarini amalda ta'minlashga qaratildi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun "Inson manfaatlari - hamma narsadan ustun", "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan ezgu g'oyalar davlatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida ko'zda tutilgan islohotlarni hayotga tatbiq etishning asosini tashkil qildi. Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, bu borada patrul-post xizmati faoliyatini boshqarishni takomillashtirish muammolarini o'rganishga oid ko'plab izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda post-patrullik xizmati tomonidan aholiga xizmat ko'rsatish va keng jamoatchilik bilan hamkorlik qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, post-patrul xizmatlarini yangi avlod texnologiyalari va dasturlari bilan ta'minlash orqali ularning ish samaradorligini oshirish, shuning bilan birga xizmat faoliyatini maqsadga muvofiq modellar asosida tashkil etish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'tkan davr mobaynida mamlakatimizda davlatimiz rahbaru hamda Milliy gvardiya qomondonligi tomonidan jamoat tartibini saqlash bo'linmalari faoliyatini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ushbu sohada jamoat tartibini saqlash bo'linmalarining tezkorligi va samaradorligini ta'minlovchi moddiy-texnik jixozlanishi darajasini mustaxkamlash, zamonaviy ilmiy-texnik vositalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash kabilarni nazarda tutgan holda takomillashtirish" ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Soha faoliyatini zamon talablari asosida huquqiy, tashkiliy-taktik, moddiy-texnik va kadrlarga oid asoslarini takomillashtirish orqali ularni boshqarishning samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzar masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat tartibini saqlash bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi va o'z vakolati doirasida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash kabi bir qancha vazifalarni bajarib kelmoqda.

Albatta jamoat tartibi saqlash deganda birgina Milliy gvardiya bo'linmalarining say harakatlari bilan katta yutuqlarga erishishning iloji yo'q. Ushbu sohada hamkorlikdagi kuch tuzulmalari bilan bir qatorda fuqarolarimizning ham ushbu borada bir qancha majburiyatlari borligini inobatga olish lozim bo'ladi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi..shu sababdan ham Milliy gvardiy bo'linmalari tomonidan jamoat tartibini saqlash xizmatini olib borish davomida ichki ishlar organlari



xodimlari hamda bozor va savdo majmualari rahbariyati bilan hamkorlikni tashkillashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi va rahbarligi ostida so‘nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlari asosida ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ish uslublarini, aholiga xizmat ko‘rsatish masalalarini, hamkorlik mexanizmlarini, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasini va shaxsiy tarkib bilan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish choralari kuchaytirish bu boradagi tizimli ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Shuningdek, hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda jinoyat o‘choqlari»ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish belgilandi<sup>2</sup>. Bir so‘z bilan aytganda ushbu sohada ilmiy tadqiqot olib borgan huquqshunos olimlar to‘g‘ri ta‘kidlaganlaridek, ichki ishlar organlari bilan Milliy gvardiya faoliyatida amalga oshirilayotgan islohotlar huquq tartibotni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Ma‘lumki, har qanday davlat organi boshqa tuzilmalar bilan hamkorlikni tashkil qilmasdan turib, ichki imkoniyatlari doirasida o‘z faoliyatining samaradorligini ta‘minlay olmaydi. Jumladan, ichki ishlar organlari ham o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda tarkibiy tizimga kiruvchi tarmoq xizmatlari, boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi<sup>3</sup>.

Bizga ma‘lumki, bugungi kunda ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining o‘zaro hamkorligi qonun hujjatlarida mustahkamlangan. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlarda, ichki ishlar organlari o‘z faoliyatini ochiq va shaffof tarzda, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirishi<sup>4</sup> shuningdek, Milliy gvardiya o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hamkorlik qilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent viloyatida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki



ishlar organlari kuch va vositalarini boshqarishning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi PQ-4343-son (2019 yil 29 may) qarori Toshkent viloyatida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o‘tish, shuningdek, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmalarining kuch va vositalarini nazorat qilish va boshqarishning samarali tizimini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, mazkur qarorga muvofiq, Toshkent viloyati ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmalari kundalik xizmat o‘tashlari bevosita mintaqalar bo‘yicha taqsimlanadi; mintaqaviy hududlar rahbarlariga patrul-post xizmati naryadlarining kundalik joylashuvini belgilash huquqi berildi; Toshkent viloyati tuman (shahar)larida Milliy gvardiya va ichki ishlar organlarining jamoat tartibini ta‘minlash kuchlari tarkibida birgalikda patrullik xizmatini o‘tash tartibi joriy qilindi.

Bir so‘z bilan aytganda mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadida davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligini ta‘minlash tizimida keng ko‘lamli demokratik islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

Xulosa: Yuqoridagilarni inobatga olgan holda hozirgi kunda Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari tomonidan xizmat olib borishda bir qancha talablar mavjud. Ushbu talablar ijrosini taminlagan holda xizmat vazifalarini olib borish harbiy xizmatchilardan bilim va mahorat egasi bo‘lishlikni taqazo etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:**

1. 16.09.2016 yildagi O‘RQ-407-sonli “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida” qonuni
2. 18.11.2020 yildagi O‘RQ-647-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida” qonuni
- 15.06.2022 yildagi O‘RQ-778-sonli “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida” qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni
4. Понятие «военно-профессиональная подготовка», ее сущность и содержание К. В. Аксёнов UDK 37